

"Tasdiklayman"

RIA va KIIAT markaz

Direktori I.S.Razikova

"14-X" 2023 y.

O'zbekiston Respublikasi Sog'lqn ni Saqlash Vazirligi, Respublika  
ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy  
tibbiyat markazi xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslaxat kengashi  
to'g'risida

## Nizom

### 1-bob. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu Nizom mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha tibbiyat muassasalarida mexnat jamoalarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslaxat kengashlari asosiy vazifalari va funktsiyalari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
- 1.2. Maslaxat kengashi xotin-qizlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda mulkchilik shaklidan qat'i nazar tibbiyat muassasalarida barcha mehnat jamoalarini faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ xisoblanadi.
- 1.3. Maslaxat kengashi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar barcha mehnat jamoalarida faoliyat olib borayotgan hotin-qizlarni ixtiyoriylik asosida birlashtiradi, shu bilan birga jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.
- 1.4. Maslahat kengashlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qarorlar va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining karorlari va farmoyishlariga, shuningdek, mazkur Nizomga muvofiq olib boradi.

### 2-bob. Maslaxat kengashini tashkil etish va uning tuzilishi

- 2.1. Maslahat kengashi mehnat jamoalarida 18 yoshdan katta bo'lgan xotin - qizlarning soni 5 nafardan kam bo'lмагan taqdirda tashkil etiladi.
- 2.2. Maslaxat kengashini tuzish hakidagi qaror a'zolarning yig'ilishi tomonidan qAbul kilinadi va bu haqda tegishliligi bo'yicha uch ish kunida. O'zbekiston Respublikasi oila va hotin-qizlar davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi oila va hotin-qizlar qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar oila va xotin-qizlar

boshqarmalari, tuman (shaxar) oila va xotin-qizlar bo'limlariga xamda yuqori turuvchi organiga xabar kilinadi

2.3. Maslaxat kengashini tashkil etish to'g'risidagi qaror chiqqan kundan boshlab 10 (o'n) kun muddatda tegishliligi bo'yicha Markazda ro'yxatga olinadi

### 3-bob. Maslaxat Kengashining asosiy vazifalari va funksiyalari

3.1. Maslaxat kengashi mexnat jamoalarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-iqtisodiy axvoli va mehnat sharoitlarini yahshilash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga asoslangan holda oila munosabatlarini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, xotin-qizlarning ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida tuziladi.

3.2. Quyidagilar maslahat kengashiining asosiy vazifalari hisoblanadi: oila va hotin-qizlar davlat qo'mitasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda yaqindan ko'maklashish; Xotin-qizlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari faoliyatiga ko'maklashish; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xamda xukumatining hujjatlarida soxaga oid belgilangan talablarni hayotga to'laqonli joriy etish.

3.3. Maslaxat kengashi o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi: a) oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasiga Yuklangan vazifalarni amalga oshirishda yaqindan ko'maklashish sohasida: oila va xotin-qizlar davlat qo'mitalari hotin-qizlarning ko'makchisi va tayanchiga aylantirish; oila va hotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir tavsiyalar berish, hotin-qizlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida vujudga kelayotgan muammo va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etishda ko'maklashish; oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining davlat organlari va muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik kilish rejalarini belgilashda, tadbirlar, anjumanlar tashkil etishda va o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatish; xotin-kizlar muammolari va tashabbuslarini o'rganish; xotin-qizlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish masalalarini xal qilishda jamoat birlashmalari, xayriya jamg'armalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar bilan o'zaro xamkorlik qilish; xotin-qizlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ayollarga nisbatan mexnat qonunchiligidagi belgilangan imtiyoz va kafolatlarni amalga oshirishda ko'maklashish; Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyati borasida keng jamoatchilik fikrini o'rganish, tahlil qilish, ushbu soxadagi ishlarni yanada takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish; b) xotin-qizlarni Davlat tomonidan xar tomonlama qo'llab-quvvatlash soxasidagi isloxtlarni xotin-qizlarga doimiy ravitshda etkazib borish; xotin-qizlarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mexnat sharoitlarini yaratilishiga ko'maklashish; milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga asoslangan xolda oila munosabatlarini

mustaxkamlash, xotin-kizlar o'rtasida salbiy xolatlarning oldini olish, ularning ma'naviyatini yuksaltirish; xotin-qizlarning xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilishga, ularning jamiyat xayotidagi roli va faolligini oshirishga, sog'lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga, oilada ma'naviy-axloqiy muxitni shakllantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni tashkil etish; xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, xuquqiy bilimlari va madaniyatini oshirish, xuquq va manfaatlarini himoya qilish, muammolarini o'rganish va bartaraf etishga ko'maklashish; oilalarni mustaxkamlashga oid xotin-qizlar masalalarida ta'lim muassasalari va boshqa tegishli tashkilotlar bilan xamkorlik qilish; xotin-qizlarga milliy o'zlik, insonparvarlik an'analariga sadoqat G'oyalarini singdirish, ular o'rtasida radikalizm va ekstremizmning yot g'oyalariga qarshi immunitetni mustaxkamlash borasida ma'rifiy ishlarni amalga oshirish; xotin-qizlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sportga qizikishni rag'batlantirish choratadbirlarini amalga oshirish; xotin-qizlar o'rtasida sanitariya-gigienaga oid va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish; xotin-qizlar ta'limi va tarbiyasi sifatini oshirish, o'quv jarayoniga ta'limning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish choralarini ko'rish; xotin-kizlarning kasbiy Salohiyatini oshirib borishi uchun shart sharoitlarni yaratish, seminarlar tashkil etish; xotin-kizlar o'rtasida o'kuv, axborot, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va boshqa tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish; tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka qarshi kurashish choratadbirlarini amalga oshirish. v) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xamda Xukumatining hujjatlarida sohaga oid belgilangan talablarni xayotga to'laqonli joriy etish soxasida: xotin-qizlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarining ishlab chiqilishida va amalga oshirilishida ishtirok etish; xotin-qizlarga oid davlat siyosati soxasidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi yuzasidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

#### 4-bob. Maslahat Kengashining Huquq va majburiyatlar

4.1. Maslaxat kengashi quyidagi xuquqlarga ega: O'zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi va mazkur Nizom tamoyillariga zid bo'limgan ichki idoraviy xujjatlarni qabul qilish; o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha davlat organlari va muassasalari, Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan belgilangan tartibda ma'lumotlarni so'rash va olish; davlat organlari va muassasalarining xotin-kizlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish bilan bog'lik faoliyati samaradorligini oshirishga doir takliflar ishlab chiqish; O'zbekiston Respublikasi oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi qo'mita va uning xududiy bo'linmlari tomonidan o'tkaziladigan tadbir va o'quv seminarlarga o'z vakillarini yuborish; jamiyat va davlat xayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mexnati bilan onalik va bolalik muxofazasiga munosib xissa qo'shgan, shuningdek, sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazish, ularni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash, joylarda ma'naviy-axloqiy muxitni

sog'lomlashtirish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-kizlarni belgilangan tartibda "Mo"tabar ayol" ko'krak nishoniga tavsiya etish; xotin-qizlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda faol va tashabbuskor xotin-kizlarni rag'batlantirish, jamoat ishlariga jalg etish, shuningdek, ularni o'rnatilgan tartibda raxbarlik lavozimlariga tavsiya etish; ularning xuquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan takliflar ishlab chikish va raxbariyatga kiritish; O'zbekiston Respublikasi "xotin-qizlar va erkaklar uchun teng xuquq xamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun xujjalarning ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; maslaxat kengashi faoliyatini OAV larida keng yoritib borish; boshlag'ich tashkilot qonun hujjalaringa muvofiq; boshqa xuquqlarga xam ega bo'lishi mumkin.

4.2. Maslaxat kengashi o'ziga Yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi uchun javob beradi.

#### 5-bob. Maslaxat kengashi faoliyatining asosiy tamoyillari

5.1. Maslaxat kengashi o'z faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida olib boradi: maslaxat kengashi raxbar organlarining saylanishi; boshlanG'ich tashkilot va uning saylab qo'yiladigan organlari ishida kollegiallik, oshkorallik; qarorlar qabul qilish chog'ida munozara erkinligi va qabul qilingandan keyin so'zsiz bajarilishini ta'minlanishi.

#### 6-bob. Maslaxat Kengashining raxbar organlari

6.1. Maslaxat kengashining raxbar organlari umumiyligi yig'ilishi; ayollar kengashi.  
6.2. Raxbar organlarida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi: umumiyligi yig'ilishi maslaxat Kengashining oliy organi; ayollar kengashi - maslaxat kengashi faoliyatiga raxbarlikni amalga oshiruvchi kollegial ijroya organi; Maslaxat kengashi raisi - faoliyatini yakkaboshchilik asosida amalga oshiruvchi raxbar.

#### 6.3. Umumiyligi yig'ilishi:

6.3.1. Maslaxat Kengashining umumiyligi yig'ilishlari ularning ishida o'z a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda xuquqli hisoblanadi. 6.3.2. Maslaxat kengashi umumiyligi yig'ilishi qarorlari ularda qatnashayotgan yig'ilish ishtirokchilarining yarmidan ko'pi yoqlab ovoz bergandagina qabul kilingan xisoblanadi. Ovoz berish usuli (ochiq; yoki yopik tarzda) tegishli umumiyligi yig'ilish ishtirokchilari tomonidan belgilanadi

6.3.3. Maslaxat Kengashining umumiyligi yig'ilishida muxokama etilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilinadi va natijalari bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtiriladi.

6.3.4. Maslaxat kengashi umumiy yig'ilishining chaqirilishi to'g'risida kamida 10 (o'n) kun avval e'lon qilinadi va unda umumiy yig'ilish muddati, joyi, kun tartibi ko'rsatiladi.

6.4. Maslaxat Kengashining zarur xollardagi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'z a'zolarining tashabbusiga binoan, maslaxat kengashi a'zolarining kamida uchdan bir qismining talabiga ko'ra chaqiriladi.

6.5. Maslaxat kengashi umumiy yig'ilishining vakolatlari: maslaxat kengashi raisini 3 (uch) yil muddatga saylash; maslaxat kengashining faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini eshitish; mazkur Nizom va boshqa amaldagi Qonunchilik hujjatlarga zid bo'lмаган faoliyatiga doir nizomlar va boshka hujjatlarni qabul kilish, shuningdek, ularga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish; Maslaxat kengashi a'zolarining huquq va qonuniy manfaatlariga oid masalalarda qaror qabul qilish; ayollar kengashi son tarkibini belgilash va a'zolarini 3 (uch) yil muddatga saylash; ayollar kengashining a'zolari faoliyatini davom ettira olmagan (boshqa ishga o'tib ketishi yoki boshqa sabablarga ko'ra) taqdirda 2 (ikki) xaftha muddatda kengash tarkibini to'ldirish va yangi a'zolarni saylash bo'yicha umumiy yig'ilish o'tkaziladi.

6.6. Vakolat muddati (3 yil) tugaganidan so'ng, maslaxat kengashi organlarining vakolati tugagan xisoblanadi. Vakolat muddati tugaganidan so'ng, a'zolar tashabbusi bilan umumiy yig'ilish o'tkazilib, qayta saylov o'tkazishi lozim. Qayta saylovlarni o'tkazish fors-major xolatlarida yoki qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar joriy qilinganda ma'lum bir muddatga kechiktirilishi mumkin.

6.7. Ayollar kengashi: ayollar kengashi maslaxat Kengashining saylab qo'yiladigan kollegial ijroviy organi xisoblanib, boshlang'ich tashkilot faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi; ayollar kengashi tarkibiga lavozimidan qat'iy nazar boshlangich tashkilotning faol, obro'li a'zolari orasidan 3-7 nafar tarkibda ayollar va erkaklari jamoasi saylanadi; ayollar kengashi yig'ilishi zaruriyatga karab, ammo xar chorakda kamida bir marotaba o'tkaziladi; ayollar kengashi yig'ilishlarini uning raisi, u yuq bo'lgan xollarda uning a'zolaridan biri olib boradi. U ayollar Kengashining vakolat muddati 3 (uch) yil; ayollar kengashi xujjatlari yig'ilish bayoni shaklida qabul kilinadi.

6.8. Ayollar kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi: Nizomda belgilangan vazifalarni va umumiy yig'ilishning qarorlarini bajarish bo'yicha faoliyatni amalgal oshirish; xotin-qizlarning ijtimoiy-mexnat xuquqlariga aloqador, jumladan, bandlik, mehnat munosabatlarini tartibga solish, ish xaqi, mexnat sharoiti, xotin-qizlarning mexnat xuquqlarini, salomatligini muxofaza qilish, uy-joy va maishiy turmush sharoiti, madaniy xizmat ko'rsatish, xotin-qizlarning ijtimoiy kafolatlari kabi masalalar bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi xamda ularni qonunlarda va boshka normativ-xuquqiy xujjatlarda mustaxkamlash yuzasidan takliflar ishlab chiqish; soxaga oid xorijiy tajribalarni o'rganib borish; qonunchilikda Maslaxat

Kengashiga beriladigan xuquqlarni amalga oshirish; o'z faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikni xabardor qilish; Maslaxat kengashi raisi o'z xoxishiga ko'ra yoki boshqa ishga o'tganligi sababli lavozimidan ozod etish xaqida ariza bergen taqdirda yoki salomatligi yomonlashgani tufayli o'z vazifalarini bajara olmay qolgan xollarda umumiyligini yig'ilishlar oraligidagi Maslaxat kengashi raisini saylash va lavozimidan ozod kilish; umumiyligini yig'ilishlar oraligidagi davrda maslaxat kengashi raisi lavozimidan ozod etilgan xollarda, umumiyligini yig'ilish o'tkazilguniga kadar maslaxat kengashi raisi vazifasini bajarishni uning a'zolaridan biriga yuklash to'g'risida qaror qabul qilish; xotin-qizlarning ijtimoiy-mexnat xukuklari va manfaatlariga doir masalalarni qonunlar va boshqa normativ xuquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yish yuzasidan takliflar ishlab chikish; ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida ishtirok etish, Maslaxat kengashi faoliyatiga doir muxim masalalar bo'yicha qarorlar, bayonotlar, murojaatnomalar qabul qilish; Maslaxat kengashi a'zolari va faollarini rag'batlantirish to'g'risida qarorlar qabul qilish; maslaxat kengashi ish rejasini tasdiqlash. Ayollar kengashi qonunchilik Xujjatlari va ushbu Nizomga muvofiq boshqa vakolatlarga ega bo'lishi mumkin.

6.9. Maslaxat kengash raisi: maslaxat Kengashiga rahbarlik qiladi, bir vaqtning o'zida umumiyligini yig'ilish va ayollar kengashi raisi ham hisoblanadi. Ushbu Nizom va rahbar organlar qaroriga muvofiq berilgan vakolatlar doirasida maslaxat kengashi nomidan ish ko'radi; Maslaxat-kengashi raisi mexnat jamoasi raxbarining o'rinnbosari maqomiga tenglashtiriladi; umumiyligini yig'ilish tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadi; ushbu Nizom bo'yicha vazifalarni, shuningdek, raxbar organlari qarorlarining bajarilishini tashkil etadi va uning oldida xisobdordir; davlat va xo'jalik boshkaruv organlarining, ish beruvchilarning ochiq xay'at majlislarida maslaxat kengashi nomidan ishtirok etadi; umumiyligini yig'ilish va ayollar kengashi yig'ilishlarini o'tkazadi; ayollar kengashi yig'ilishini chaqiradi, muhokama qilinadigan masalalar yuzasidan materiallar tayyorlanishini tashkillashtiradi, YIG'ilishga masalalarni kiritadi, qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydi va nazorat qiladi; umumiyligini yig'ilish va ayollar kengashi yig'ilishi bayonlarini imzolaydi.

#### 7-bob. Maslaxat kengashi faoliyat sarxisobi va axborot berish tartibi

7.1. Boshlang'ich tashkilot o'z faoliyatining natijalari xisobini olib boradi va belgilangan tartibda xar chorak yakunlarida xisobotlarni tegishliligi bo'yicha o'z rahbariyati, Oila va xotin-kizlar davlat qo'mitasi va xamda yuqori turuvchi organiga taqdim etadi.

#### 8-bob. Maslaxat kengashi faoliyatiga ko'maklashish

8.1. Oila va xotin-kizlar davlat qo'mitasi va uning bo'linmalari xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlarga xar tomonlama ko'maklashadi, ularning faoliyati samaradorligini oshirishga mas'ul hisoblanadi

## **9-6ob. Maslaxat kengashini tugatish yoki qayta tashkil etish tartibi**

- 9.1. Maslaxat kengashini tugatish yoki qayta tashkil etish** Maslaxat kengashining umumiy yig'ilishi qaroriga asosan amalga oshiriladi.
- 9.2. Maslaxat kengashiii qayta tashkil etilganda umumiy yig'ilish uning xuquqiy vorisini belgilaydi.
- 9.3. Maslaxat kengashini qayta tashkil etish va tugatish qonun xujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.